




KORXONALARDA MOLIVAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR TAHLILI

G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali
“Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrası assistenti



Annotatsiya: *Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy holat kategoriya, korxonalar faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkich sifatida e'tirof etiladi. Iqtisodiy tahlil va auditga doir adabiyotlarda moliyaviy holat ularning ob'yekti sifatida o'rganiladi. Ushbu maqolada korxonada auditorlik tekshiruvidan o'tkazish va tahlil qilishda moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Korxonaning moliyaviy holati, moliyaviy ahvol, absolyut barqaror moliyaviy holat, normal barqaror moliyaviy holat, barqaror bo'lmagan moliyaviy holat, inqiroziy moliyaviy holat.*

Kirish. Buxgalteriya hisobi moliyaviy holatni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish va tahlil qilishda asosiy axborot manbasi bo'lib hisoblanadi. «Tashkilotlar moliyaviy holati tashkilotlarning moliyaviy resurslari holati, joylashishi va ishlatilishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi»¹.

«Korxonaning moliyaviy holati – bu kompleks tushuncha bo'lib, korxonaning moliyaviy resurslari holati, joylashishi va ishlatilishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi»².

Korxonaning moliyaviy holati uning moliyaviy qodirligi, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganligi, debitrlilik va kreditorlik qarzlari holati kabi jihatlari ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi³

«Moliyaviy ahvol – korxonada mulkida bo'lgan iqtisodiy resurslarni mavjudligi va ularga qarama-qarshi bo'lgan jami kapitaldir. Moliyaviy ahvolni faqat ma'lum davrga aniqlash mumkin»⁴.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

«Korxonaning moliyaviy holati, -deb yozadi prof. A.D.Shyeremet, - mablag'lar (aktivlar)ning joylashi va foydalanishi va ularni shakllantirish manbalari (xususiy kapital va majburiyatlar,

¹ Ионова А.Ф., Селезнова Н.Н. Финансовый анализ: Учебник.- М: Изд-во Проспект, 2007. – 389-б.

² Волжин И.О, Ергашбоев В.В.. Финансовый анализ. Методическое пособие. – Т.: «Мир экономики и права», 1998. – 8-бет

³ Кудратов Т., Файзиева Н. Қишлоқ хўжалиқ корхоналари фалятининг таҳлили.. Дарслик. – Самарқанд.-179 б.

⁴ Тўлаходжаева М.М., Тулаев М.С..Молиявий ҳисоб-1. Ўқув қўлланма. 3-нашр. – Тошкент, 2013. – 17-б.



ya'ni passivlar) xarakteri bilan tavsiflanadi»⁵.

Prof. M.Q.Pardayev korxonalar moliyaviy holatini boshqachasiga moliyaviy salohiyat (potensial) ham deb atagan va unga quyidagicha ta'rif bergan: «Korxonaning moliyaviy salohiyati (potensial) deb uning faoliyatini to'liq ta'minlaydigan turli manbalardan tarkib topgan moliyaviy mablag'lar majmuasiga aytiladi»⁶

Ayrim olimlar⁷ moliyaviy holatning barqarorligini to'rtta turga ham ajratadilar:

- absolyut barqaror moliyaviy holat – bu korxonaning xususiy oborot aktivlari va joriy aktivlarni moliyalashtirish maqsadida olingan bank kreditlari miqdorini korxonaga zarur bo'lgan moddiy zahiralari miqdoridan ko'pligi ta'minlangan holat.
- normal barqaror moliyaviy holat - bu korxonalar moddiy zahiralari miqdorini ularni shakllantirish uchun olingan bank kreditlari miqdoridan ko'pligi ta'minlangan holat.
- barqaror bo'lmagan moliyaviy holat – bu korxonaga zarur bo'lgan moddiy zahiralari miqdorini uning xususiy oborot aktivlari va joriy aktivlarni moliyalashtirish maqsadida olingan bank kreditlaridan tashqari qo'shimcha majburiyatlar evaziga ta'minlash holati.
- inqiroziy moliyaviy holat – bu korxonaning to'lov qobiliyati yo'qolib, uni bankrotlik darajasiga kelib qolgan holati.

Moliyaviy holat korxonalar faoliyatiga baho berishda o'ta muhim ahamiyat kasb etadigan jihatlardan hisoblanadi. U, bir tomondan, korxonaning ma'lum sanada qanday mablag'lari borligini, ikkinchi tomondan esa, ularning kimga tegishli ekanligini ifodalaydi. Moliyaviy holatni, boshqasiga mablag'lar ta'minoti holati ham deb ataydilar. Chunonchi, mablag'lar holatini ifodalovchi buxgalteriya balansini xorijiy davlatlarda «Moliyaviy holat to'g'risida hisobot» deb atash takliflari mavjud⁸.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Yuqoridagilardan yana bitta xulosa qilish mumkinki, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning moliyaviy holati to'g'risidagi axborotlarga qiziquvchilar soni borgan sari ko'payib boradi. Ularning asosiylari sirasiga korxonalar menejerlari, aksiyadorlar, kreditorlar, investor, mol yetkazib beruvchilar, davlat organlari va boshqalar ni kiritish mumkin. Ushbu qiziquvchilarning har biri korxonalar moliyaviy holati to'g'risidagi axborotlardan o'z maqsadlarida foydalanadilar. Chunonchi, menejerlar uchun xo'jalik faoliyati samaradorligi, foydalaniladigan resurslar va olingan natijalarni baholash g'oyatda muhim o'rin tutadi. Mulkdorlar va aksiyadorlarni esa birinchi navbatda qo'yilgan sarmoyalarning o'zini oqlashi, xatarlilik darajasi yoki ehtimoliy zararlar qiziqtiradi. Kreditorlar investitsiya mablag'larining qaytishi istiqbollari baholashdan kelib chiqsa, mol yetkazib beruvchilar korxonaning yetkazib berilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar haqini o'z vaqtida to'lash qobiliyatini baholashadi. Bundan tashqari, ayrim mualliflar ta'kidlaganidek, «axborot foydalanuvchilar ... korxonani moliyaviy jihatdan sog'lamlashtirish, iqtisodiy nochorlik va bankrotlikning oldini olishni ham ko'zda tutadi»⁹.

⁵ А.Д.Шеремет. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия: Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2008. – 279-б.

⁶ Пардаев М.К., Исроилов Б.И. Иқтисодий таҳлил. Ўқув қўлланма. 1-қисм. – Т.: «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси», 2001. – 115-б.


⁷ Ионова А.Ф., Селезнова Н.Н. Финансовый анализ: Учебник. - М: Изд-во Проспект, 2007. – 374-375-бетлар.

⁸ Уразов К.Б. Бухгалтерия молиявий ҳисоби. –Самарқанд, 2012. – 28-б.

⁹ Хасанов Н., Нажбиддинов С. Корхона молиявий ҳолатини баҳолаш. – Т.: «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси», 1999. – 3-б.



Moliyaviy holatning mohiyati, yuqoridagi ta'rif va tavsiflardan ko'rinib turibdiki, uni ifodalovchi ko'rsatkichlarda yorqin namoyon bo'ladi. Bunday ko'rsatkichlarning asosiylariga mualliflar quyidagilarni kiritadilar (1-chizмага qarang).




1-chizma. Korxonalar moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar

Endi moliyaviy holat tushunchasini mehmonxonalar misolida qanday talqin etish mumkinligiga e'tiborni qaratsak. Mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi sub'yektlarning moliyaviy holati, albatta, kompleks ravishdagi tushuncha bo'lib, u o'z ichiga keng ko'rsatkichlar tizimini oladi, ular mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi sub'yektlarning moliyaviy resurslari borligi, holati, joylashganligi va ulardan foydalanish darajasini ifodalaydi.

Ta'kidlash joizki, moliyaviy holatni ifodalovchi ko'rsatkichlarning mohiyati, ularni hisob-kitob qilish tartiblari adabiyotlarda turli tarmoqlar misolida atroflicha ochib berilgan.

Ushbu ko'rsatkichlar tasnifi quyidagi chizma ko'rinishida aks ettirish mumkin



2-chizma. Korxonalar moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi

Moliyaviy holat ta'rifi va uni ifodalovchi ko'rsatkichlarni hisob-kitobiga oid yuqorida keltirilgan tartib-qoidalar moliyaviy holatni ifodalovchi ko'rsatkichlarni mehmonxonalar misolida auditorlar tomonidan ham tahlil qilishda metodologik asos bo'la oladi, deb hisoblaymiz. Mehmonxonalar moliyaviy holatning ayrim ko'rsatkichlarini auditorlik tahlilini o'tkazish tartiblariga ishimizning keyingi boblarida alohida to'xtalamiz. Korxonaning moliyaviy hoati iqtisodiy kategoriya sifatida xo'jalik subyekting o'z faoliyatini yuritish, rivojiantirish va o'zo'zini moliyalashtirish imkoniyatiari yuzasidan kapitalning holatini xarakterlaydi. Ya'ni xo'jalik subyekting moliyaviy resurslar bilan ta'minlanish darajasini, ularning maqsadli joylashtirilishi va samarali foydalanish darajasini, boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan bo'ladigan moliyaviy munosabatlarni, to'lovga qobillik va moliyaviy barqarorlik holatini tavsiflashni xarakterlaydi. Moliyaviy holat xo'jalik subyekting barcha jihatlariga: ishlab chiqarishni reja topshiriqlarining bajarilishiga, xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirish va foydani o'stirish darajalariga, ishlab chiqarish samaradorligini o'sishiga, tovarlar, pul mablag'larining aylanuvchanligiga ta'chir etuvchi faktorlarga, xomashyo va materiallarni yetkazib beruvchilar bilan, mahsulotlar yuzasidan xaridorlar bilan aloqalarning mustahkamligi, sotish yuzasidan hisob-kitoblarning takomillashuv darajasiga bog'liq ravishda moliyaviy holatni o'rganish va tahlil etish orqali xo'jalik subyekting samarali faoliyatini yo'lga qo'yish va uni o'stirishning imkoniyatlariga, moliyaviy raqobatdoshlikka va to'g'ri moliya siyosatini yuritilishiga, moliyaviy resurslar va kapitaldan davlat va boshqa subyektlar oldidagi majburiyatlamini bajarilishiga baho beriladi. Xo'jalik subyekting samarali faoliyatini yo'lga qo'yish va uni o'stirish imkoniyatlarini baholashda korxonalar ishlab chiqarish, tijorat va moliya faoliyatidan moliyaviy resurslarning kirimiga va ulardan moliyaviy holatni o'stirishda foydalanish darajalariga, moliyaviy natijalarni kutilishini prognozlash va iqtisodiy rentabellikni xo'jalik faoliyatining real imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda oshirishning yo'llarini belgilashga, moliyaviy resurslardan yanada samarali foydalanishning choratadbirlarini belgilashga ahamiyat qaratiladi. Moliyaviy holatni baholash orqali ikkita natijaviy ko'rsatkichga ega bo'linadi. Birinchisi korxonalar boshqaruv apparatining faoliyatiga baho beriladi, ikkinchisi



moliyaviy holatning ayrim ko'rsatkichlarini prognozlash imkoni tug'iladi. Moliyaviy tahlil maqsadi - firma va kompaniyalar moliyaviy holatini, moliyaviy natijalari, pul oqimlarini moliyaviy hisobot ma'lumotlarida ifodalangan ko'rsatkichlar tizimidan foydalangan davriy o'rganishdan iborat.

Moliyaviy holatni ifoda etuvchi tarkibiy jihatlar				
Moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi		Aktivlar va passivlar balansligi		Korxonaning moliyaviy barqarorligi
Kreditga qodirlik		Daromad va xarajatlar balansligi		
To'lovga qobillik		Pul oqimlari balansligi		

3-chizma. Moliyaviy holatni tarkibiy ko'rsatkichlari

Moliyaviy jozibadorlikni xarakterlovchi ko'rsatkichlar: moliyaviy resurslar bilan ta'minlanish, kreditga va to'lovga qobillik darajalari moliyaviy holatni baholashda eng muhim qatorlar hisoblanadi. Aktivlar va passivlar balansligi, daromad va xarajatlar balansligi pul oqimi balansligini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar moliyaviy faoliyatning natijaviyligi va rentabelligini xarakterlaydi.

Xulosa

Korxonalar xo'jalik faoliyatini hisobi va tahlil qilishning asoslari, hozirgi holati va tahlilini o'rganish natijasida quydagi xulosalarga kelindi.

Moliyaviy tahlilni asosiy maqsadi korxonaning moliyaviy holati (uning foydasi va zararlari, aktivlari va passivlari tarkibidagi o'zgarishlar, debitorlik va kreditorlik qarzlarning holati va h.k.)ni ob'yektiv va aniq ifodalab bera oladigan muhim parametrlarini olish hisoblanadi. Shu asosda tahlil va boshqaruvchilar korxonaning joriy moliyaviy holatiga baho beradi, yaqin yoki uzoq kelajakdagi strategiyalarini va kutilayotgan moliyaviy holat parametrlarini rejalashtiradi. Ishlab chiqarish, savdo, moliya, investitsiya sohalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari uchun boshqaruvchilar doimiy ravishda dastlabgi axborot «xom-ashyosi»ni yig'ish tahlil qilish, baholash natijalaridan xabardor bo'lishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Pardayev M.Q., Isroilov J.I., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. T.:Print Line Group, 2017.-533
2. Subramanyam K.R. Financial statement analysis. 11th edition. New York, Mc Graw-Hill Education, 2014. - 814 pages.
3. Moliyaviy tahlil. Darslik. / M.Y.Raximov, N.N.Kalandarova; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 736 b
4. Akramov E.A. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili. O'quv qo'llanma. – T., 2007
5. M Xalmurzayev, I.Gafforov KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATINI REYTING BAHOLASH VA TAHLIL QILISH USULLARI The Journal of Economics, Finance and Innovation, 2023 671-681
6. G'afforov I.I., Abdushukurov M.B. “KORXONALAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TAMINLASHDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINING MUHIMLIGI” BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI 5-son 2023-yil 471-474-bet



7. Abdigapparovich, I. X. (2024). QISHLOQ XO ‘JALIGI MAXSULOTLARINI TAYYORLOV VA SOTISH XIZMATLARINI BOSHQARISH. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(2), 148-157.
8. Abdigapparovich, I. X. (2024). QISHLOQ XO ‘JALIGIDA MASHINA-TRAKTOR PARKLARI XIZMATLARINING AXAMIYATI. *WORLD OF SCIENCE*, 7(2), 105-113.
9. Абдигаппарович, И. Х., & Юлдашев, Ш. Х. (2024). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕТА ЗАТРАТ И СТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ. *SO‘NGI ILMIIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(1), 361-368.
10. Alikulov, A. I. (2010). Modern trends in development of cotton production and processing chain in Uzbekistan. *Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB*, 6(3), 75-76.
11. Tashmuratovich, E. U. (2023). ACCOUNTING AND AUDIT IMPROVEMENT OF READY SALE PRODUCTS IN AGROCLUSTER. *The Journal of Economics, Finance and Innovation*, 649-657.
12. Yuldashev, S., & Ishturdiyev, H. (2023). Qishloq xo ‘jalik korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini takomillashtirish masalalari.
13. Гайбуллаев, Р. М., & Иштурдиев, Х. (2023). ХЎЖАЛИК ЮРИТИШ СУБЪЕКТЛАРИДА МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР ҲИСОБИ ВА АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *World of Science*, 6(4), 345-351.
14. Eshmuradov, U. B. (2023). Sotish jarayonlari hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish.